

21-OKTABR – DAVLAT TILI HAQIDAGI QONUN QABUL QILINGAN KUN

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:42 (67207)
2018-yil 15-oktabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN – 2010-6092

Yangi yilda yanada yaqinroqmiz!

AZIZ O'QUVCHILAR!

Yaqinroq kelsangiz, Sizga ajoyib bir yangiligimiz bor. Qanday, deysizmi? Unda

DIQQAT QILING!

Respublika bolalar va o'smirlarining eng sevimli nashri – «TONG YULDUZI» gazetasi 2019-YILDA Sizga yangi va bir-biridan ajoyib-u g'aroyib sovg'alarni hozirdanoq hozirlab qo'ydi.



Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 59-DIUMning 7-«E» sinf o'quvchilari gazetaning yangi soni bilan tanishmoqda.

AGAR GAZETAMIZGA 2019-YIL UCHUN OBUNA BO'LSANGIZ:

- ✓ Yurtimiz ta'lim maskanlarida ilmga chanqoq va tashabbuskor tengdoshlaringiz ishtirokidagi bir-biridan qunvoq bayram tadbirlari, sevimli yozuvchi va shoirlar bilan o'tgan ijodiy uchrashuvlar, maktablarda tashkil etilgan fan oylilari, «Ochiq eshiklar kuni» haqidagi bir-biridan qiziq maqolalarni o'qib, bilimingizni boyitasiz.
- Nahotki?!
- ✓ Gazetamiz tomonidan o'tkaziladigan yangi va bir-biridan ajoyib ko'rik-tanlovlarda ishtirok etib, nafaqat o'z iqtidor va iste'dodingizni namoyon etasiz, balki qimmatli sovg'alarni ham qo'lga kiritasiz.
- Ola-a-a-a!
- ✓ Iste'dodli tengdoshlaringiz chizgan bir-biridan chiroyli rasmlarni tomosha qilib, san'atning betakror olamiga sayr qilasiz.
- Zo'r-ku!
- ✓ Bolalar yozuvchi va shoirlarining yangi – «Tandirdan uzilgan» er-tak va hikoyalari, she'r-u dostonlarini eng birinchi bo'lib mutolaa qilasiz. Ularning bolaligi haqidagi hikoyalarni o'qib, olam-olam taassurotlarga ega bo'lasiz.
- Eh, qanday mazza-a!
- ✓ Tanqidiy, mulohazali maqolalar, topishmog'-u boshqotirmalar, tengdoshlaringiz ijodidan bahra olib, rosa zavqlanasiz.
- Yo'g'-e?!
- ✓ Sportchi tengdoshlaringiz erishgan olamshumul g'alabalar, muro-sasiz uchrashuvlar, keskin bahslar haroratini biz bilan his etasiz.
- Mana bunisi boshqa gap!

Nahotki, birgina gazetaga obuna bo'lish orqali shuncha taassurotlarga ega bo'lsak, deysizmi? Albatta-da! Bunday ajoyib imkoniyatni faqat va faqat «Tong yulduzi» gazetasigina taqdim etadi.

SHUNDAY EKAN, GAZETAMIZGA OBUNA BO'LISHGA SHOSHILING. VAQT ESA JUDA-JUDA OZ QOLMOQDA. ISHONING, BUNAQASI HALI BO'LMAGAN.

Ha, darvoqe, «Tong yulduzi»ga hududingizdagi Aloqa bo'lim-larida obuna bo'lishingiz mumkin.
Tel: (71) 244-63-08; www.tongyulduzi.uz;
e-mail: info@tongyulduzi.uz; telegram: t.me/tongyulduz

Nashr ko'rsatkichi
198

Sizga bilim yor bo'lsin,
Ustoz madadkor bo'lsin.



Gulnora hali maktabga bormasidanoq harflarni tanidi. O'qish va yozishni o'rganib oldi. Uning bu qiziqishi maktabga 6 yoshida boshlashiga sabab bo'ldi. Tirishqoq qizaloq 11 nafar farzand, opa-singillari, aka-ukalari bilan birga ulg'aydi. Katta opasi Gulchehraning «O'qituvchi-o'qituvchi» o'yinida «Ustoz» bo'lishi, qolganlarining o'quvchi rolini ijro etishi, jajji qizchani qalbida zavq uyg'otar edi. Ota-onasi farzandlaridagi bu intilishni ko'rib, behad sevindi.

ENG OLIY BAXT...

Yillar o'tdi. Oilaning to'ng'ichi Gulchehra maktabni oltin medal bilan tamomlab, Jizzax davlat pedagogika oliygohining ona tili va adabiyoti fakultetiga imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilindi. O'qish uchun sotib olgan kitoblarni mutolaa qilib bo'lgach, har shanba kuni uyiga tashlab ketar edi. Bu hol 5 yil takrorlandi. Qarabsizki, uyda mo'jazgina kutubxona paydo bo'ldi. Gulnora uchun bu ayni muddao edi. O'qituvchilik kasbini orzu qilgan zarbdorlik qiz, vaqti kelib, xuddi katta opasi kabi o'sha institutning ona tili va adabiyoti fakultetiga hujjat topshirdi. Oddiy qishloq qizi eng yuqori ball bilan o'qishga qabul qilindi.

2000-yilda oliygohni muvaffaqiyatli tamomlab, Do'stlik tumanidagi 7-umumta'lim maktabiga ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi bo'lib ishga qabul qilindi. O'z oldiga eng yaxshi ustoz bo'lishni orzu qilgan muallima hamkasblari nazariga tushdi, ular ishonchini oqladi.

– Men hech qachon o'quvchilarimga bilim berishdan charchamayman, aksincha, ulardagi ilmga chanqoqlikni ko'rsam, jo'shib ketaman, – deydi suhbatdoshimiz. – Bilganlarimni shogirdlarimga o'rgataman, bilmaganlarimni esa maktabimizdagi tajribali, faxriy o'qituvchilar – Saidrasul Xalilov, Gulnora Abdullayeva, Mahsuda Jabborova, Abdurahmon Rajabov, Zulfiya Abdullayevlardan o'rganaman.

Bugungi kunda tajribali ustoz Gulnora Abdullayeva yosh havaskor ijodkorlarni tarbiyalashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Necha yildirki, «G'uncha» to'garagining rahbari. Eh-he, ularning qo'l ostida qancha-qancha shogirdlar yetishib chiqmadi, deysiz... Bu to'garakda ijod sirlarini o'rgangan Ravshan Xalilov, Zarifa Ibragimova, Farida Xalilovalarning bir necha kitoblari kitobxonlar qo'lida. An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Fan olimpiadasi» va «Bilimlar bellashuvi» hamda tuman, viloyat miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda shogirdlari faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Muallima maktabga barvaqt keladi. Darsdan tashqari o'quvchilar bilimidagi bo'shliq bilan ishlaydi, og'zaki va yozma savodxonligini o'stirish kabi ishlar bilan band bo'lib, kech bo'lganini ham payqamay qoladi. O'quvchilarning sevimli ustoz 4 farzandning mehribon onasi: ba'zan qattiqo'l, ba'zan esa mehribon. Katta qizi E'tibor hamda kenja o'g'li Ziyodulla ham onasi kabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lmoqchi.

Halol mehnat – shirin turmushning asosi, deb bilgan Gulnora Abdullayeva o'zini eng baxtli ayollardan biri deb biladi. 18 yillik tajribaga ega bo'lgan muallima bugun yaxshi ustoz degan sharafga muyassar bo'ldi. O'qituvchi uchun bundan ortiq baxt bormi, azizlar?!



O'z muxbirimiz

Aziz o'quvchim! Sizing o'zingizga xos beg'ubor olamingiz bor. Ko'nglingiz gul kabi nozik, qalbingiz osmon kabi beg'ubor. Shuning uchun bo'lsa kerak, atrofingizdagi voqea-hodisalardan tez ta'sirlanasiz. Ba'zan «Nima uchun?», «Nega?» degan savollar sizni qiynaydi. Ana shunday vaqtda avvalo, onangiz, ustozingiz suyanch bo'ladi, e'tibor ko'rsatadi. Ammo, sizga ruhan madadkor bo'lib, to'g'ri yo'l ko'rsata oladigan soha vakili, mutaxassis ham borligini bilasizmi? Bu maktabning ruhshunosidir. Ta'lim maskaningizda «Psixolog xonasi» degan yozuvga ko'zingiz tushganmi? O'ylaymizki, bugungi mulohazalarimiz sizga asqotadi. Shu o'rinda o'quvchilik yillarimdagi bir voqea haqida so'zlab bersam...

MAKTAB PSIXOLOGINI TANIYSIZMI?



Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 202-umumta'lim maktabi ruhshunosi Hilola opa Musurmonova o'quvchilar bilan yaqindan do'stlashib olgan.

8-sinfda o'qib yurgan kezlirim maktabimiz ruhshunosi darsdan keyin test o'tkazishini aytdi. Biz katta qiziqish bilan uning xonasiga yig'ildik. Ma'mura ustoz tarqatgan so'rovnomada: «Sinfingizdagi qaysi o'quvchi doim barchaga yordam qo'lini cho'zadi?», «Orangizda ijodkor o'quvchilar bormi?» degan savollar bor edi. Keyin bilsak, o'quvchilarning javoblari ichida kimning ism-sharifi ko'p takrorlangan bo'lsa, u sinf yetakchisi deb topildi. Biz psixolog opamizning mashg'ulotlariga juda qiziqib qoldik. Biror masala yoki muammo tug'ilganida ham ulardan maslahatlar so'radik. Hatto, oilaviy masalalarda ham ulardan madad topgan sinfdoshlarim topildi.

Ko'rdingizmi, bu soha egasi qanchalik sizga yaqin do'st-u sirdosh bo'lishi mumkin. Faqat siz u bilan do'stlashib olsangiz, bas. Joriy o'quv yilidan boshlab, ushbu soha egalariga katta e'tibor qaratilib, bir necha talablar qo'yildi. Lekin, bu borada siz ham faol bo'lmas ekansiz, maktabdagi psixologga erkin va qiziqish bilan murojaat qiluvchi o'quvchilar soni ko'paymaydi. Siz bugungi zamonning ilg'or farzandi ekansiz, kerak vaqtda imkoniyatlardan unumli foydalanishni, joyida huquqingizni bilib yashashni o'rganing! Balki bugun ba'zi ta'lim maskanlaridagi psixologlar barcha o'quvchilarni qamrab olmayotgandir? Yoki yuqorida men misol qilgan ruhshunos ustozim kabi faoliyat yuritishmayotgandir?! Ammo, siz o'zingiz tashabbus ko'rsating, odob bilan huquqingizni talab qiling!

Bu dastlabki mulohazalarimiz. Keyingi sonlarda sizga bu soha mutaxassislarning qiziqarli darslari-yu, maslahatlarini ham tayyorlashni rejalab qo'ydik. Demak, biz mavzuga yana qaytamiz. Siz esa unga qadar maktabingiz ruhshunosi bilan tanishib olasiz, degan umiddamiz.

Sayyora QODIROVA

IZLAGAN IMKON TOPAR

Yaqinda shaharda yashovchi qarindoshimizning uyiga mehmonga bordim. Shu bahona kitob do'konlarini aylandim. Yurtboshimiz:

«Men shunga aminmanki – kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q», degan so'zlaridan ilhomlanib, anhadan buyon yig'ib yurgan pullaringa, kutubxonamizda yetishmayotgan kitoblarni sotib olmoqchi bo'ldim.

Afsuski, qidirgan kitoblarning aksaryati do'konlarda yo'q ekan.

O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi», Fyodor Dostoyevskiyning «Jinoyat va jazo» romanlarini esa bir necha do'konlardan qidirayotdim. Kitoblarning narxi ham biroq qimmat ekan. Albatta, bunday holat men kabi kitobsevar tengdoshlarimga birqancha noqulayliklar tug'diradi. Shunday bo'lsa-da, mutolaadan to'xtaganimiz yo'q. Tilagim, siz ham kitobga oshno bo'ling.

Dilshodbek RAHMATULLAYEV,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 13-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

NAVOIYNI BILMAGAN KIM BOR?

Bir kuni adabiyot darsida ustozimiz germaniyalik mashhur yozuvchining «Alisher Navoiy haqida» nomli asarini so'zlab berdi.

Biz buyuk bobomizni butun dunyo taniganidan faxrlidik. Ammo, shu vaqt o'qituvchimiz darsga quloq solmay, shovqin solayotgan sinfdoshimizga tanbeh berdi:
– Samandar, bugungi darsimiz senga qiziq emasmi yoki Navoiy haqida hamma narsani bilasanmi? Qani, buyuk ajdodimizning hayoti haqida gapirib ber-chi?

Sinfdoshimiz mavzu yuzasidan biror ma'lumot ham, jo'yali fikr ham ayta olmadi. Shunda ustoz afsus bilan barchamizga tushuntira boshladi:

– G'azal mulkingning sultoni, millatimiz faxrining hayoti va ijodi haqida bilmaslik uyat. Axir, ularga munosib bo'lmoq vazifasi bor hali oldingizda.

Ustoz Samandardan qattiq ranjigani bois bizga mavzuni uzoq tushuntirdi. Sinfdoshimiz esa uyalganidan yuzlari qizarib ketdi va kelasi darsga, albatta, tayyorlanib kelishga va'da berdi.

Men esa o'sha kuni kechgacha bu voqea haqida o'yladim. Va sevimli gazetamga yozishga qaror qildim. Toki, yurtimizdagi har bir tengdoshim buyuk bobomizga katta ehtirom va hurmat bilan yashasin! Darsda mudrab o'tiradigan yoki boshqa ish bilan shug'ullanishga urinadigan bolalar bu haqida mulohaza yuritishadi, degan umiddaman.

Nigina BEKPO'LATOVA,
Respublika televideniye va radio kasb-hunar kolleji o'quvchisi

MUZEYDAGI DARS

Maktabimizda ijodkor va kitobxon o'quvchilar talaygina. Ular ona tili va adabiyot darsini juda yaxshi ko'rishadi. Shu bois, har bir darsni qiziqarli o'tishga harakat qilaman.

Ayniqsa, oktabr – ona tili va adabiyot fani oyligidagi tadbirlarimiz juda zavqli o'tmoqda. Qolaversa, o'quvchilarning istaklaridan kelib chiqib, ko'plab tanlovlarni tashkillashtirmoqdamiz. Adabiyot muzeyiga uyushtirilgan sayohatimiz esa o'quvchilarga bir olam quvonch ulashdi. U yerda bolajonlarga buyuk adabiy merosimiz haqida so'zlab berar ekanman, ular ajdodlarimiz bilan faxrlanishdi.

Fan oyligi doirasida o'quvchilar hatto gazeta chiqarishga ham harakat qilishdi. Ushbu devoriy gazetadan sevimli adiblarning hayoti va g'azal-u, asarlari o'rin oldi. Shuningdek, ijodkor o'quvchilarning ham hikoya va she'riy mashqlaridan foydalanildi.

Oylik ana shunday tadbirlarga boy tarzda o'tar ekan, hali oldinda o'quvchilarni bolalar yozuvchi va ijodkorlari bilan ajoyib uchrashuvlar kutmoqda. Bu ishlarga bosh bo'layotgan maktabimiz direktori Gulnora opa Xoliqova esa barchani qo'llab-quvvatlashga doimo tayyor.

Shukurjon JUMASHEVA,
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 67-umumta'lim maktabi o'qituvchisi



Kattalar, e'tibor bering!

MAKTAB KARVONSAROYGA AYLANMASINI!

O'quv yilini ko'tarinki ruhda boshlab, bilim olishga sho'ng'ib ketdik. O'qituvchilarimiz shijoati ham bizni quvontiradi. Biz esa hozirjavoblig-u, darsga tayyorligimiz bilan ularni quvontirsak, deymiz. Hammasi yaxshi-ku, lekin dars endi boshlanganida yoki eng qiziq nuqtasiga yetganida eshikni qoqib, tekshiruvchilar kirib kelib qolishadi, ba'zan.

Dars boshlangach, maktab rahbariyati davomat uchun kirib, besh daqiqa vaqtini oladi. Undan keyin mahalla posboni, profilaktika inspektori kirib, o'n daqiqa tekshiruv o'tkazadi. Aslida bu ba'zi sho'xroq tengdoshlarim tufayli qilinadigan ishlar ekanligini yaxshi bilaman. Ammo, dars muqaddas ekan, meni turli tekshiruvlar o'ylantiraveradi.

Yaqinda shahar XTB xodimi va IIB vakili kelib, dars paytida qariyb 30 daqiqa ma'ruza o'qidi. Men ularning huquqbuzarliklarining oldini olishmoqchi ekanini tushunaman. Ammo, bunday tadbirlar darsdan keyin o'tkazilishining tarafdoriman. Ayniqsa, «Biz falon tashkilotdanmiz», deya kelib hisobot uchun rasimga tushirib ketishadi. Turli kasalliklarning oldini olishga keladigan targ'ibotchilar esa qo'lga titilib ketgan qo'llanmani olib, qimmatli vaqtimizni oladi. O'zlari kelishga og'ringan tibbiyot xodimlari esa diktant, insho va bayon yozib berishni tayinlashadi. Biz esa necha yildan buyon qo'ziqorindan zaharlanishning oldini olish haqida yoza-veramiz. Vaholanki, bu mavzuni DSENM xodimlarining o'zlari kelib bizga tushuntirishlari lozim emasmi?

Bu holatlarni kuzatib, maktablar karvonsaroyga aylanib qolmasligini istardim. Ko'zbo'yamachilikdan yiroq bo'lib, samimiy muloqotlar ko'payishini so'rardim. Chunki, dars soatlarining biror soniyasi behuda ketmasligi, ertaga o'quvchilar qo'shimcha dars uchun repetitorlarga qatnashmasliklari lozim. Xullas, bu holatlarni Abdulla Oripov yozganiday, «Bir o'tirib o'ylaydigan odam kerak!»

Otabek BAKIROV,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi 27-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi



CHOR MINOR



Asal RAVSHANOVA – Buxoro shahridagi 35-umumta'lim maktabining 8-«G» sinf o'quvchisi. U tasviriy san'atga qiziqadi. Joriy yilda o'tkazilgan «Biz tinchlik istaymiz!» ko'rik-tanlovining shahar bosqichida 1-o'rinni egalladi. Buxoro shahar «Milliy qadriyatlar» festivalida 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Buxoro shahar «Barkamol avlod» bolalar markazi tomonidan tashkillashtirilgan «Yer kurrasida tinchlik» hamda shahar Yoshlar ittifoqining «Tasviriy san'at» rasmlar tanlovida faol ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni egallagan.

TABIAT QO'YNIDA



E'zoza ABDUG'AFFOROVA,
Jizzax viloyati, Arnasoy tumanidagi 24-umumta'lim maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi

Nurshoda BOBORAJABOVA,
Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 24-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Til bilgan – el biladi.

Tong yulduzi

SIZDAN TA'LIM OLAR OZOD VA ERKIN AVLOD

Aziz bolajonlar, o'quv yili boshlanganiga ham bir oydan ortiq vaqt o'tdi. Bu davr ichida kundaligingizdagi besh baholar ham ko'payib qolgan bo'lsa kerak?

Bir maktabda qo'sh tadbir «YOSHLAR»NING QO'LI BALAND KELDI

Kuni kecha Samarqand viloyatining Tayloq tumanidagi 14-umumta'lim maktabida qo'sh tadbir bo'ldi. Ta'lim maskanida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan «Zakovat» tanlovi tashkil etildi.



Tadbirda maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari N.Jabborova, tarix fani o'qituvchisi A.Obloqulov qatnashdi. 8–9-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan mazkur kechada 9-sinfning «Yoshlar», 8-sinfning «Zukko» jamoasi o'zaro bellashdi. Har bir guruhga 6 tadan savol berilib, to'g'ri javob 1 ball bilan baholab borildi. Musobaqa so'nggida 6:2 hisobida 9-sinfning «Yoshlar» guruhi g'olib bo'ldi. G'olib jamoa maktabning yoshlar yetakchisi Husnuda Ahmedova tomonidan faxriy yorlik bilan taqdirlandi.

GULLARGA BURKANSIN VATAN!

Tayloq tumanining umumta'lim maktablari orasida Xalq ta'limi bo'limi mudirasi Zumrad Salahova tomonidan «Gullarga burkansin Vatan!» shiori ostida tadbir tashkil etildi.

Unda tuman hokimligi vakillari, XTB xodimlari, tuman yoshlar ittifoqi raisi M.Ashurov, Samarqand viloyati yoshlar ittifoqi raisi A.Aslanov, tuman madaniyat bo'limi hamda maktab biologiya o'qituvchilari va o'quvchilari ishtirok etdi.



Tadbirda umumta'lim maktabi o'quvchilari o'zlar bilan olib kelgan gullar hammani xushnud etdi. Qolaversa, 14-umumta'lim maktabining «Ko'zmunchoq» raqs das-tasining ajoyib raqslari yig'ilganlarning olqishiga sazovor bo'ldi. Yakunda «Eng chiroyli gullar» nominatsiyasi bo'yicha 1-o'ringa 21-umumta'lim maktabi, 2-o'ringa 34-umumta'lim maktabi o'quvchilari, 3-o'ringa esa 40-umumta'lim maktabi o'quvchilari munosib topildi.

Shu kunlarda «Til bayrami»ga qizg'in tayyorgarlik ko'rayotgan bo'lsangiz, ajab emas. Biz esa bilim maskaningizda o'tkazilayotgan bayramlar, ijodkor, a'lochi va namunali o'quvchilar haqida maqola tayyorlab, tengdoshlaringiz erishayotgan yutuqlarni yoritib borishdan aslo charchamaymiz. Bu safargi mehmonimiz ulug' alloma Hakim at-Termiziy tavallud topgan Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabi o'quvchilaridir. Keling, ushbu bilim maskani haqida maktabning ma'naviy-axloqiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, Xalq ta'limi a'lochisi ko'krak nishoni sohibasi Gulchehra opa Ashurova so'zlariga quloq tutsak:

– «Tong yulduzi»ning har bir sonini qoldirmay o'qib boramiz. Bu nashrga o'quvchilarimizning qiziqishi tobora ortib bormoqda. Bilim maskanimizda 2161 nafar o'quvchi tahsil oladi. Endi o'quvchilarimizning erishayotgan muvaffaqiyatlari haqida bir oz to'xtalsak. 2017–2018-o'quv yilida o'tkazilgan «Prezident asarlari bilimdoni» tanlovida Elmira Murodova shahar bosqichi g'olibi bo'ldi. 8-sinf o'quvchisi Najmiddin Qosimxo'jayev maktabimiz faxriga aylangan. U sportning taekvando turi bilan bir necha yillardan buyon shug'ullanib kelmoqda. Murabbiysi A.Botirov uni g'alabalar sari ruhlantirib boradi. Najmiddin joriy yilning iyun oyida Koreyada bo'lib o'tgan musobaqada zafar quchdi. 6-sinf o'quvchisi Zumrad Abdullayevaning she'rlarisiz hech qaysi tadbirimiz o'tmaydi. Zumrad bu yil «Eng iste'dodli shoir» tanlovining viloyat bosqichida 2-o'rinni egalladi. 2-sinf o'quvchisi Farzona Sattorovanning raqslari hech kimni befarq qoldirmaydi. «Afg'oncha», «Turkcha», ayniqsa, «Andijon polkasi»ga raqs tushayotgan Farzonaning harakatlarini kuzatib, beixtiyor «Barakalla!» deb yuborasiz. U joriy yil Turkiyannig Mug'la shahrida o'tkazilgan tanlovda sertifikat bilan taqdirlandi.

Kuni kecha nishonlangan O'qituvchi va murabbiylar kuni ham ushbu bilim maskanida o'zgacha shukuhda o'tdi. Quchoq'i gullarga, qalbi nurga to'lgan ustozlarga o'quvchilar bir ovozdand:



Ey millat muallimi, zakiy va donishmand zot, Sizdan ta'lim olar ozod va erkin avlod... deyishdi.

Xalq ta'limi a'lochisi Dilshoda To'rayeva rahbarlik qilayotgan ushbu ta'lim maskani o'quvchilari hali bundan-da ko'p yutuqlarni qo'lga kiritishadi.

Ozoda TURSUNBOYEVA

TIL — MILLAT KO'ZGUSI

Xalqimizda «Til bilish – dilni bilishga yo'l ochar», degan naql bor. Darhaqiqat, til – aloqa vositasi. Biz turli millat vakillari bilan muloqot qilganimizda ularning madaniyati, san'ati va urf-odatlaridan boxabar bo'lamiz. O'zaro aloqa va do'stlik munosabatlarimiz mustahkamlanib boraveradi.

Jizzax shahridagi 6-umumta'lim maktabi o'quvchilari ona tili va adabiyot fanini chuqur o'rganmoqda. Fan xonalari zamon talablari asosida zarur texnik vositalar hamda turli ko'rgazmali qurollar bilan boyitib borilmoqda.

Fan oyligi davom etayotgan shu kunlarda pedagoglardan Ilhom Tojiboyevning «Til – millat ko'zgusi», Munisa Namozovaning «Tilga e'tibor – elga e'tibor», Sabohat Mamarajobovanning «Davlat tili haqida» kabi ma'ruzalari tinglovchilar tomonidan katta e'tibor bilan tinglandi va bahs-munozaralarga sabab bo'ldi.

Adabiyot to'garagi nashri bo'lgan «Savodxon» devoriy gazetasining bayram sonidan yosh lingvistlarning qo'lga kiritgan yutuqlari hamda o'quvchilardan Maftuna Oybo'tayeva, Sevinch Jo'raboyeva, Noila Tirkasheva kabilarning she'r, maqola va boshqotimalari o'rin olgan. Ular ona tili va adabiyot fani bilimdonlari bo'lib, bir necha bor tuman va

viloyat miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etgan.

O'quv dargohlaridagi kutubxona doimo o'quvchilar bilan gavjum. Bu yerda «Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilingan kunga bag'ishlab «Davlat tilimiz bilan faxrlanamiz» mavzusida konferensiya bo'lib, so'zga chiqqan pedagog va o'quvchilar ona tilimizning so'z boyligi, qadr-qimmatini hamda turkiy tillar o'rtasida tutgan o'rni haqida ma'lumot berdi. So'ngra konferensiya ishtirokchilari shu mavzuga bag'ishlangan stend, buklet, fotoalbom va shu kabi ko'rgazmalar bilan tanishdilar.

Yaqinda o'quvchilar o'rtasida ona tili va adabiyot fanini chuqur o'rgatish maqsadida kutubxonaga shahar hokimligi 100 ga yaqin, maktab ota-onalar qo'mitasi esa 120 nusxada badiiy asarlar sovg'a qiliishi.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati

22-oktabr – Xalqaro maktab kutubxonalari kuni

KOMILLIKKA ELTUVCHI YO‘L



Insoniyat shu davrgacha qanday yuksalishlarga erishgan bo'lsa, fan-texnika, tibbiyot, adabiyot, san'at sohalarida nechog'lik ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan bo'lsa, bu yutuqlar ildizi insonlarning ko'nglida, tafakkurida, ruhiyatida!

Chunki inson sog'lom fikr-lasagina, o'y-xayolida ezgulik, poklik, halollik kabi tuyg'ular yashasagina, o'zini xalq, Vatan xizmatiga chog'lasagina, uning faoliyati samarali bo'ladi. Va bu samaradan nafaqat o'ziga, balki atrofi-

dagilarga, eliga, xalqqa ham manfaat keladi. Bunday ezgu amallarga qodir insonlarni komil inson, deb ataymiz. Xo'sh, komil inson qanday yaratiladi? Komil farzand tarbiyasi eng avvalo, oilada shakllanadi. Keyin esa bog'cha, maktab

va ta'limning keyingi bosqichlarida mukammallashib boraveradi. Kitob mutolaasi ham insonni komillikka yetaklovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan yoshlarimiz orasida kitob mutolaasi



Tadbir so'nggida ustoz Sayyora Polvonova 29-oktabr kuni «Eng kitobxon o'quvchi» ko'rik-tanlovi o'tkazilishi haqidagi xabarni e'lon qilib, barcha o'quvchilarni tanlovda ishtirok etishga chorladi.

va kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotganining boisi ham shunda. Kitobxonlik targ'ibotiga oid turli bayramlar, tadbir va tanlovlarning tashkil qilinishidan ko'zlangan asosiy maqsad ham o'g'il-qizlarimiz ma'naviyatini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish, komil inson bo'lib ulg'ayishlariga hissa qo'shishdan iboratdir.

Kuni kecha poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 292-umumta'lim maktabida ma'naviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Sayyora Polvonova boshchiligidagi «22-oktabr – Xalqaro maktab kutubxonalari kuni» munosabati bilan o'tkazilgan tadbir

ham aynan shunday ezgu maqsadda tashkillashtirildi. Tadbirda ishtirok etgan Maftuna Ergasheva, Aliya Jiyanbayeva, Diana Jumaniyozova, Azima Saidzimova singari maktabning faol, kitobxon o'quvchilari kutubxonani yanada boyitishga oid takliflar bildirishdi. Yosh qalamkashlar ijod namunalari opalari o'qishdi. O'quvchilarga ularning yoshiga, qiziqishiga mos kitoblarni tanlab beradigan kutubxonachi opalari Sevara Gulmatovadan, shuningdek, mazkur nurxonada ular uchun yaratilgan shart-sharoitlardan behad mamnun ekanliklarini alohida ta'kidlashdi.

Feruza JALILOVA



Lesson 42

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

Two helpers



Once there lived an old teacher. He lived alone. Pupils care about him. They helped him in the housework.

One day two pupils came to help him. There was a barrow in the yard. The old teacher asked them to fill the barrow. Karim took a big bucket, but Ravshan took a smaller one. The teacher saw this through the window. When both of them finished their work he invited them into the room.

When boys entered the room, they saw a jug and a glass on the table. Both of them was filled with honey. «Choose honey as you chose the buckets», said the teacher.

Kamola MIRZAYOROVA,
the student of Uzbek world
Languages University

A RIDER

One day, a villager while going to the city on his horse, saw that one of the horseshoes had loosened up, but he did not pay attention towards it and kept riding. After covering some distance, the horseshoe came off but still he did not stop.

Suddenly, he got surrounded by dacoits and had no other alternative but to hand over all his belongings to them.

If he had repaired the horseshoe, he could have escaped from there.



Ma'mura G'ULOMOVA

FAMOUS PERSON'S OPINION ABOUT BOOKS

A book is the only place in which can you examine a fragile thought without breaking it (*Puch xayollarni sinovdan beziyon o'tkaza oladigan narsa faqatgina kitobdir.*)

(Edward. P. Morgan)

Reading a book is like rewriting it for yourself (*Mutolaa qilish xuddi kitobni o'zingiz uchun qayta yozishga o'xshaydi.*)

(Angela Carter)

You know, you have read a good book when you turn the last page and feel a little as if you have lost a friend (*Bilasizmi, yaxshi kitobni so'ngi sahifasini yopar ekansiz, qalbingizda yaqin do'stingizni yo'qotayotganday bir tuyg'u kechadi.*)

(Paul Sweeney)

A good book has no ending (*Yaxshi kitobning yakuni bo'lmaydi.*)

(R.D. Cumming)

There is no friend us loyal as a book (*Kitobdan-da sodiq do'st yo'q.*)

(Ernest Hemingway)

There are worse crimes than burning books. One of them not reading them (*Kitoblarni yondirishdan ham ortiq yovuzliklar bor. Ulardan biri kitob o'qimaslikdir.*)

(Joseph Brodsky)

There are many ways to enlarge your child's world. Love of books it the best of all (*Farzandlar tafakkurini kengaytirishning ko'plab yo'llari bor. Ulardan eng yaxshisi kitobga bo'lgan muhabbatdir.*)

(Jacqueline Kennedy Onassis)

Translated by M. FAYZULLAYEV

SEN KO'NGLIMNING KALITI

Navoiyning qalami singgan,
Mangudirsan ona lisonim.
O'zbek xalqin orzusi ingan,
Qalblar charog'isan zabonim.

Mangulikning nafasi urar,
Ajddlarni quchgan hayrati.
Sen-la yuksak asarlar turar,
Yurtning madhi hamda qudrati.

Marjona SHAROPOVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanida-
gi 283-umumta'lim maktabining
9-«A» sinf o'quvchisi



OQQUSH, OPPOQ QUSHLARIM

Parvoz etib samoda,
Quvonasiz dunyoda.
Chiroyingiz tanho-da,
Oqqush, oppoq qushlarim.

Olavin g'amingizni,
To'ldirib kamingizni.
Kutaman baringizni,
Oqqush, oppoq qushlarim.

Parvoz qilib tolmaysiz,
Bitta joyda qolmaysiz.
Bizni unutmaysiz,
Oqqush, oppoq qushlarim.

Quvonch baxsh etasizlar,
Tizilib ketasizlar.
Manzilga yetasizlar,
Oqqush, oppoq qushlarim.

Oydin TOSHQUVVATOVA,
Samarqand viloyati, Pstdarg'om
tibbiyot kolleji o'quvchisi



BIZ SHU YURTNING ERKASI

Biz Vatanning erkasi,
Kelajakning mevasi.
So'nmas gul-u bahori,
Porloq yulduz niholi.

Bulbul sayrar bog'ida,
Dil yayrar quchog'ida.
Har kun, har on to'y, bayram,
Tantanalar zo'r har dam.

Mustaqilmiz, obodmiz,
Vatanimizda shodmiz.
Biz Vatanning erkasi,
Kelajakning ertasi.

Fotima NORBOYEVA,
Jizzax viloyati, Sharof Rashidov
tumanidagi 30-umumta'lim
maktabining 5-«V» sinf o'quvchisi

ONAM ALLA AYTGAN TILIM

Ona tilim jon-u dilim,
Onam alla aytgan tilim.
Go'daklikdan yuragimga,
Singdirgandir nurlu yo'lim.

Alangadek yonding dilda,
Qayga borsang yodimdasan.
O'zbekimning dalalari,
Sen qalbinda, qonimdasan.

Durdona SOBIROVA,
Baxmal tumanidagi
11-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf
o'quvchisi



VATANIM MENI

Men ulg'aydim sening bag'ringda,
Onamni sevgandek sevdim men seni.
Har bir qadamim quvonchga to'la,
Vatanjonim, Vatanim meni.

Ostonadan boshlanar Vatan,
Go'zallikka topolmadim so'z.
Orzularga aylangan Vatan,
Onam bo'lib yuragimda o's.

Shabnam BAXTIYOROVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo
tumanidagi 73-umumta'lim makta-
bining 6-sinf o'quvchisi

BOSHIM KO'KKA YETADI

Bayramlar ko'p turfa, xilma-xil,
Yuragimga yaqindir bari.
Boshim ko'kka yetaveradi,
Ona tilim yashagan sari.

Vatan, ona, tinchlik so'zlarin,
O'z tilimda yayrab aytaman.
Navoiy va Bobur g'azalin,
Bulbul kabi sayrab aytaman.

Istiqloldan yashnagan Vatan,
O'zbekiston, elim bor bo'lsin.
Olam sirin bizga o'rgatgan,
Baxtim, ona tilim bor bo'lsin.

Gulzoda O'RINBOYEVA,
Farg'ona viloyati, Qo'shtepa
tumanidagi 40-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi.)

Boshi o'tgan sonlarda)

Bir kuni sen mendan: «Bola-
lar nimaga bunaqa turli-tu-
man-a, bobojon», deb so'rab
qolding. Bildim, sinfdoshlaring-
dan qaysi biridir seni ajablan-
tirgan, qaysi biri hayratga
solgan, qaysi biri jahlingni
chiqargan va hokazo...

Odamlar-chi, bolajonim,
irqiga qarabgina turli-tuman
bo'lishi mumkin. Lekin hulgiga
qarab esa... Quloq sol!

Islom olamida o'zining ko'plab
ma'naviy-ma'rifiy asarlari bilan
mashhur bo'lgan buyuk
vatandoshimiz Burhoniddin
Marg'iloniy hazratlari odamzotni

Erkin MALIK,
O'zbekiston
Respublikasida xizmat
ko'rsatgan jurnalist



aralash-quralash bo'lib yotibdi.
Lekin diqqat qilib, bilsa bo'ladi.
Bilib oldingmi, e'tiborni o'sha
oxirgi toifaga qarat. Undaylarni
qanday bo'lmasin, zudlik bilan
HECH KIMMASlik toifasidan
qutqar, bolam. Hech bo'lmasa

ODAMNING UCH TOIFAGA BO'LINISHI HAQIDA

uch toifaga: ODAMga, CHALA
ODAMga va HECH KIMMASga
bo'lganlar.

Chinakam ODAM o'ylaydi,
fikrlaydi, reja qiladi va o'z rejalarini
haqida boshqalarga maslahat
soladi hamda maslahatlarga
amal qiladi. CHALA ODAM ham
o'ylaydi, fikrlaydi, reja tuzadi va
boshqalarga maslahat soladi.
Biroq o'z bilganidan qolmaydi,
maslahatlarga amal qilmaydi.
HECH KIMMAS toifasidagi
odam-chi? U o'ylamaydi ham,
fikrlamaydi ham, reja ham tuz-
maydi va boshqalarga maslahat
ham bermaydi.

Bu uch toifadagi ODAMcha-
lar o'rtoqlarining orasida bor.
Bo'lmasa, kattalar orasida qa-
yerdan paydo bo'lib qoladi?
Bolalikdan-da. O'rtoqlarining hali
yosh bo'lganiga ko'zga unchalik
tashlanmayapti. Hozircha

avval CHALA ODAMga aylantir,
ana undan keyin ODAMga
aylantirish oson bo'ladi. Axir
dars tayyorlaganda ham oldin
qiyinidan boshlaysan-ku, bunda
ham xuddi shunday.

Bu bir qarashda qiyinga
o'xshaydi. Axir HECH KIM-
MASdan fikran, xulqan yangi
odam yasash osonmas-da.
Ammo bu jarayon bolalikda
oson kechadi. Chunki sizning
azoi-badaningiz mumdek yum-
shoq va uni xohlagan toifaga
solisa bo'ladi. Ulg'ayganda
esa kech bo'ladi. O'zlaringiz
yashaydigan jamiyat boshiga
balo bo'ladi. Bu gaplarimni
shunchaki nasihat deb qabul
qilma, balki CHAQIRIQ deb
qabul qil, bolam...

(Davomi bor)

RUSTAMJONNING XATOSI

(Hikoya)

Rustamjon degan
bola juda tartibsiz ekan.
Kiyimlari har qayerda
sochilib yotar, darslar-
da to'liq qatnashmas,
doim ikki baho olar-
kan. Kechalari o'yin
o'ynab, tongda juda
kech uyg'onar ekan.
Bir kuni onasi Rustam-
jonga:

— O'g'lim, ertaga ikki
baho olmagin, ertaroq
darslarini tayyorlab ol.
Shunda darsda uxlab
qolmaysan. Agar yax-
shi baho olib kelsang,
seni mehmonga olib boraman, — debdi.

Rustamjon shosha-pisha papkasini
ko'tarib, maktabga chopibdi.

U darsga kelib, papkasidan kitob va



daftarini qidira boshlabdi.
Ammo izlaganlari uyida
qolib ketgan edi. Rustam-
jonning ustozini buni bilib,
unga yana «2» baho
qo'yibdi. Uyga kelgandan
so'ng, onasi buni ko'rib,
jahli chiqibdi va:

— Kelgunimcha uyni
yig'ishtirasan, bu senga
jazo, — deb mehmonga
ketibdi.

Rustamjon tartibsiz-
ligidan pushaymon
bo'libdi va boshqa bun-
day qilmaslikka so'z
beribdi.

Zuhra INOG'OMOVA,
poytaxtimizning Shayxontohur
tumanidagi 40-umumta'lim maktabining
6-«A» sinf o'quvchisi

ISHONCHIMIZ OQLANDI

Shu kunlarda Indoneziya poytaxti Jakarta shahrida bo'lib o'tayotgan III yozgi Paraosiyo o'yinlari o'zining eng qizg'in pallasiga kirib ulgurdi.

Quvonarlisi, ushbu nufuzli sport bayramida o'zbekistonlik sportchilar har qachongidan-da muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda.

Vakillarimiz bellashuvlarda bor imkoniyatini ishga solib, eng yuqori natijalar bilan qit'a va jahon rekordlarini yangilamoqda. Ayniqsa, yengil atletika bahslarida qatnashgan atlet-



larimizning ishtiroki muxlis-u mutaxassislarda juda katta taassurot qoldirdi. Jumladan, yadro uloqtirishda ona Vatanimiz sharafini himoya qilgan Husniddin Norbekov 16,35 metr natija qayd etgan holda jahon rekordini o'rnatdi va musobaqa g'olibiga aylandi. Nayza uloqtirishda Aleksandr Svechnikov va Roziya Ergasheva, uzunlikka sakrashda Kamolaxon Abdullayeva, yadro uloqtirishda Sofiya Burhonova oltin medallarni qo'lga kiritib, o'zlariga bildirilgan yuksak ishonchni ortig'i bilan uddaladi. Shuningdek, 200 metrga yugurishda Sabina Suxanova marra chizig'ini uchinchi bo'lib bosib o'tdi va bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Suv sporti turining 100 metr masofaga erkin usulda «S-13» yo'nalishida Islom Aslanov oltin medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, Muzaffar Tursunxo'jayev kumush hamda Dmitriy Xorlin bronza medaliga sazovor bo'ldi. Quvonarlisi, Islombek o'z natijasi bilan nafaqat musobaqa g'olibi, balki Paraosiyo o'yinlari rekordini (51:71 soniya) ham o'rnatdi. Mazkur masofada ayollar o'rtasida o'tgan bahslarda ham Fotimaxon Amilova 58,66 soniya natija bilan Paraosiyo o'yinlari rekordini o'rnatdi va oltin medalni qo'lga kiritdi. Ushbu masofada yana bir vakilimiz Shohsanamxon Toshpo'latova kumush medal sohibi bo'ldi.

Dzyudo bo'yicha o'tgan bahslarda Sherzod Namozov va O'tkir Nigmatov o'z vazn toifalarida tengsiz ekanini isbotlab, yakunda shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Shuningdek, Lobar Xurramova kumush, Sevinch Sallayeva esa bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Pauerliftingda vazni 55 kilogrammgacha bo'lgan ayollar o'rtasida mamlakatimiz sharafini himoya qilgan Roza Qo'ziyeva 113 kilogramm natijani qayd etib, tengsiz sportchi ekanini isbotladi.

Beshinchi kun yakunlariga ko'ra, O'zbekiston terma jamoasi medallari soni 67 taga yetdi. Vakillarimiz 31 ta oltin, 20 ta kumush va 16 ta bronza medallari bilan medallar jamg'arish bo'yicha umumjamoa hisobida beshinchi o'rinni egallab turibdi.

ARGENTINADAN XUSHXABAR

Shu kunlarda nafaqat Indoneziya, balki olis Argentina poytaxti Buenos-Ayresdan ham bir-biridan ajoyib xushxabarlar olmoqdamiz.

Ayni paytda ushbu mamlakatda III yozgi o'smirlar Olimpiya o'yinlari ko'tarinki ruhda davom etmoqda. Nufuzli musobaqada Vatanimiz sharafini jami 37 nafar atletimiz 16 ta sport turida himoya qilmoqda.

Bellashuvlarning ilk kunidayoq yosh sportchilarimiz dastlabki medalga ega chiqishdi. Taekvando bo'yicha 48 kg. vazn toifasida yurtimiz sharafini himoya qilayotgan Ulug'bek Rashidov musobaqa davomida Mo'g'uliston va Janubiy Koreya vakillarini mag'lubiyatga uchratib, finalgacha yetib bordi. Hal qiluvchi jangda u rossiyalik Dmitriy Shishkoga imkoniyatni boy berib qo'ydi va yakunda kumush medalga ega chiqdi.

Sportchilarimizga galdagi bahslarda ham omadlar tilaymiz.



S. TURSUNOV

MUHAMMADQODIRGA OMAD YOR!

Rossiyaning Tula shahrida sportning qo'l jangi bo'yicha yoshlar va o'smirlar o'rtasida Jahon chempionati bo'lib o'tdi.

Mazkur musobaqada yigirmadan ortiq davlatdan kelgan 300 nafardan ziyod qo'l jangi sport ustalari ishtirok etdi. Unda Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi Muhammadqodir Azimjonov 75 kg vaznda bronza medaliga sazovor bo'ldi.



– Muhammadqodir o'tgan yili Farg'ona viloyati chempionati hamda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi birinchiligidagi 1-o'rinni egallagan edi, – deydi murabbiy Baxtiyor Xoldorov. – Tuladagi musobaqada u qirg'izistonlik raqibini muddatidan avval yengdi, germaniyalik raqibi esa ochkolar hisobida undan ustun keldi. Shogirdim 1-o'rinni egallamagan bo'lsa-da, aynan mazkur musobaqadagi faolligi uchun sport ustaligini qo'lga kiritdi.

Muhammadqodir Azimjonov kelajakda Osiyo va Olimpiada o'yinlarida mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilishiga ishonamiz.

Nurbek QIDIRALIYEV

G'OLIBLARNING QO'LI BALAND

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Surxondaryo viloyat Kengashi tomonidan Termiz shahrida sportning stol tennisi va shaxmat turi bo'yicha musobaqa o'tkazildi. «Yoshlar jinoyatchilikka qarshimiz!» shiori ostida tashkillashtirilgan mazkur turnirda viloyatning barcha tuman, shaharlaridan 12 nafardan havaskor sportchi yoshlar ishtirok etishdi.

Stol tennisi bo'yicha qiz bolalar o'rtasida 12–16 yosh toifasida 1-o'rin O'g'iloy Ravshanqulovga nasib etdi. Farzona Turonova 2-, Sevinch Usmonboyeva 3-o'ringa loyiq topildi. 17–20 yoshlilar o'rtasida Shabnam Jumayeva g'oliblikni qo'lga kiritdi.

12–16 yoshdagi o'smirlar o'rtasida Muxtorjon To'rayev 1-o'rinni egalladi. Jahongir Ravshanov va Xumoyun Qo'chqorov keyingi o'rinni zabt etishdi. 17–20 yosh toifasida 1-o'rin Jamshid Choriyevga nasib etdi.

Shaxmat bahslarida 12–16 yosh toifasidagi qizlar o'rtasida Gulnoza Jumanazarovaga teng keladigani topilmadi. Munora Rahmatova hamda Dildora Turdimurodovlar ham shohsupadan joy oldi. Mazkur tur bo'yicha o'g'il bolalar o'rtasidagi bahslarda 1-o'rin Adham Abduraimovga nasib etdi.



M. ALIMOV

Dildora opa sinfga kirdi. Sinfdagi bolalar-ning qiy-chuvi asta tindi. U bolalarga qarab oldi-da, yo'qlamani boshladi.

Yo'qlama qilib bo'lgach, o'quvchilarga shunday dedi:

– Bolalar, bugun «R» harfi ishtirok etadigan so'z o'yini o'ynaymiz. Uning tartibi shunday: «R» harfi ishtirok etgan biror so'z aytasiz va o'sha so'zning oxirgi harfi bilan boshlanadigan, «R» harfi ishtirok etgan boshqa so'z aytiladi. Masalan, «ArRa», bu so'z «A» harfi bilan tugallanadi. Shu sababli «A» harfi bilan boshlanadigan so'z aytamiz: «Ari». Endi «I» harfiga so'z topamiz. Bu so'zda ham «R» harfi ishtirok etishi kerak. Gaplarim ham-maga tushunarlimi?

Bolalar baravariga «Ha» deb javob berishdi.
– Yaxshi, – dedi Dildora opa. – Unday bo'lsa, qani, «I» harfiga kim so'z aytadi? Birinchi partada o'tirgan Kamola darhol qo'l ko'tardi.
– Qani, Kamola, qanday so'z topding? – dedi ustoz.
– Irmog, – dedi Kamola.
– Juda yaxshi. Endi «Q» harfiga kim so'z aytadi?
– Qo'rg'on, – dedi Komila.

SO'Z O'YINI



– Juda soz. «N» harfiga-chi?
– Narvon, – dedi shoshilib Komiljon.
– Yaxshi, yana «N» harfiga. Qani, kim aytadi?
– Norin, – dedi Adham.
Bolalar kulib yuborishdi. Chunki Adham ovqatni yaxshi ko'rar edi-da.
– To'g'ri, – dedi Dildora opa ham kulib, – «N» harfiga, qani, kim so'z aytadi...

– Noto'g'ri, – dedi Isroil jon holatda. Ham-ma hayron bo'lib qoldi.
– Isroil to'g'ri aytadi, – dedi Dildora opa. «Noto'g'ri» so'zida ham «R» harfi bor. Endi «I» harfiga kim misol aytadi?
– Internet, – dedi bijirlab Komila.
– Juda soz, – dedi xursand bo'lib ustoz...

Shu payt tanaffusga qo'ng'iroq chalindi.
– Bolalar, so'z o'yini sizlarga yoqdimi? – dedi Dildora opa.
– Ha, – deydishdi bolalar baravariga.
– Unday bo'lsa, uyingizda ikkita «R» harfi qatnashgan so'zlarga beshta misol yozib keling, – dedi ustoz.
Bolalar, sizlarga ham so'z o'yini yoqdimi? Siz ham ikkita «R» harfi qatnashgan so'zlarga misol ayta olasizmi?

Bahrom AKBAROV

KUN TARIXI

15-OKTABR

1789-yil. Jorj Vashington Amerikaning Birinchi Prezidenti etib saylandi.

1993-yil. Janubiy Afrika Respublikasi Prezidenti Nelson Mandella tinchlik yo'lidagi xizmatlari uchun «Nobel» mukofoti bilan taqdirlandi.

2002-yil. Misrda Aleksandr kutubxonasi ochildi.

2016-yil. O'zbekiston Xalqaro moliya korporatsiyasiga a'zo bo'lgan kun.

2016-yil. O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, II Jahon urushi qatnashchisi Ibrohim Rahim (1916–2001 y.) tavalludining 100 yilligi nishonlandi.

2016-yil. O'zbekiston xalq artisti Mixail Filippovich Mansurov (1916–1993 y.) tavalludining 100 yilligi nishonlandi.

Internet ma'lumotlari asosida
Muhammadsharif FAYZULLAYEV tayyorladi

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

«O'ZBEK XALQ MAQOLLARI» TOPQIRLIK MASHQLARI

E'tiboringizga havola etilgan ushbu mashqlar xalqimizga mansub maqollar asosida tuzilgan.

Ulamni hal etish orqali ibratli maqollar borasidagi bilimingizni sinab ko'ring.

Bo'yiga: 1. Mardlik – ... 2. ... – navbati bilan. 12. Sog' yuray desang, ... bo'!! 13. Dono – durdan ... 18. Boboning tol ekkani, o'ziga ... qo'ygani. 19. Mehmon izzatda, ... xizmatda.

Diagonal bo'yicha o'ngga: 1. ... qo'shchiga – bir boshchi. 3. Bola ... , Tili – bulbul. 2. ... havo – dardga davo. 4. Ko'z bor – ko'rmoq uchun, ... bor bilmoq uchun.

«Zanjir» holda: 5. Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini ... oshirar. 6. Salomatlik – ... boylik. 7. ... – aql qayrog'i, har ilmning chirogi. 8. Odobli ... elga manzur. 9. Kamtarlik ham ... xislat. 10. Yolg'onchining ... so'zi ham yolg'on. 11. Quyosh, havo – ... davo. 14. Chumchuqdan qo'rqqan ... ekmaydi. 15. Do'stingga ... ayt, Mehringni qo'shib ayt. 16. Odam-odamga ... 17. Bir yil ... ekkani kishi, Yuz yil gavhar teradi.

KRIPTOGRAMMA: Avval quyida keltirilib raqamlarda ifodalangan maqollardagi kalit so'zlarni toping. 1. Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib 9, 8, 14, 10, 4 bo'lur.

2. Olim bo'lsang – olam 18, 16, 7, 2, 12, 2.
3. 2, 13 ustasidan qo'rqar.
4. Yetti 1, 11, 17, 8, 2 bir kes.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
18	1	5	7	2	7	3	*	6	4	10	11	2	3	2	18		
4	9	8	19	7	2	7	3	*	17	2	14	4	10				
5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19			
11	2	3	2	*	18	1	5	*	12	2	13	2	*				
7	2	7	3	*	1	5	8	3	2	,	4	9	4	6			

5. Odobli bola olamga 19, 8, 7, 5, 15, 14.
6. 3, 15, 11 tikansiz bo'lmas.

Endi kalit so'zlari javoblari orqali shakl kataklaridagi raqamlarni harflar bilan almashtirish bilan kriptogrammani

hal eting. Bunda ulardan so'z madhiga mansub ikki maqol ayon bo'ladi.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

8

15-oktabr 2018

Tong yulduzi
Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA
Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV, Alisher SA'DULLAYEV, Laziz TANGRIYEV, Murtazo SULTONOV, Feruz JALILOVA, Ashurali JO'RAYEV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzillimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 25674
Buyurtma – V2546

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08